

7. Ibraximov X.I. Pedagogik texnologiya T.2009 y.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–T.: “O'zbekiston”, 2016.- 56 b. (Мы все вместе построим свободное, демократическое и просвещающее государство Узбекистан).
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. - 48 b. (Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития и благополучия народа).
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz.–T.: “O'zbekiston”, 2017.-488 b.
12. Педагогические технологии : учеб. пособие для студентов пед. спец. / М. В. Буланова-Топоркова [и др.]; ред. В.С. Кукушин. - Ростов н/Д : МарТ, 2006. - 333 с.
13. Воинов М.Г. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебник. Т., 2006
14. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования [Текст]: учеб. пособие для вузов / Е. С. Полат [и др.] ; ред. Е. С. Полат. - 3-е изд., испр. и доп. - М. : Академия, 2008. - 269 с.
15. Омопов Х.Т. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik 2009y.
16. Сластенин В.А. Технология профессионально-ориентированного обучения в высшей школе: Издательство Юрайт, 2017

#### Internet saytlari:

17. www.ziyonet.uz
18. www.tdpu.uz
19. www.pedagog.uz
20. www.nutq.intal.uz

#### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

#### TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: №BD-5120106

2020 yil 28.08

#### PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA FAN DASTURI

|                       |         |                                                                                               |
|-----------------------|---------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|
| Bilim sohalari:       | 100000  | -Gumanitar soha                                                                               |
|                       | 200000  | -Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq                                                              |
| Ta'lim sohalari:      | 120000  | -Gumanitar fanlar                                                                             |
|                       | 230000  | -Iqtisod                                                                                      |
|                       | 210000  | -Sotsiologiya va psixologiya                                                                  |
| Ta'lim yo'nalishlari: | 5120100 | - Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha);                                   |
|                       | 5120100 | - Filologiya va tillarni o'qitish (mumtoz tillari bo'yicha);                                  |
|                       | 5120200 | - Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo'yicha);                                   |
|                       | 5120300 | - Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha);                                         |
|                       | 5120700 | - Jahon siyosati (mintaqalar bo'yicha);                                                       |
|                       | 5210800 | - Sharq falsafasi va madaniyati;                                                              |
|                       | 5231000 | - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha). |

Toshkent – 2020



Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil "29" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "29" 08 dagi 452 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishlab chiqildi.

#### Tuzuvchilar:

Shayusupova A.A. – TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dots. p.f.n.  
Xaydarova R.A. – TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrası katta o'qituvchisi

#### Taqrizchilar:

Maxkamova S.X. - TDSHU "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dots., p.f.n.  
Karimova G.K. – Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyasi" kafedrası v.b. dotsenti, PhD.

Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2020 yil "\_\_\_" \_\_\_ dagi "\_\_\_" – sonli bayonnomasi).

- 6 Muammoli ta'lim darajalari (stixiyali muammoli daraja, o'qituvchi aktiv-o'quvchilar passiv daraja, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda, o'quvchilar aktiv. Muammoli vaziyatlarni mazmuniga ko'ra guruhlash (maqsad-x, faoliyat-x, faoliyat usuli).
- 7 Ta'limning tashkiliy shakllarini qiyosiy tavsifi ta'lim berishning tashkiliy shakllariva usullarining nisbati. Ta'limning guruhli shakli pedagogik maqsadlarni amalga oshirish. Guruhli ta'lim berishning ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish.
- 8 Didaktik o'yinlarning turlari (psixotexnik, rolli). Didaktik o'yinlarni vazifalari rolli va ishbilarmon o'yinlar.
- 9 Hamkorlikda o'qitishning turlari. Komandada o'qitish texnologiyasining strukturalari. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Zig zag yoki arra texnologiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etish.
- 10 Kop-koop, 6X6 texnologiyalarining tuzilishi, Hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini qo'llash shart-sharoitlari.
- 11 O'quv jarayonida pedagogik texnologiya.
- 12 Seminar darslarni tashkil etishda interaktiv texnologiyalarni qo'llash, klaster, sinkveyn texnikasi).
- 13 Darslarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish
- 14 Psixotexnik o'ynlar: aqliy shturm, debat, intervyu, blis-o'yin va pres-ekspres, (fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyalar: "VENN" diagrammasi, SWOT-taxlil, FSMU.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan slayd va video matnlar tayyorlash, fundamental asarlarni taxlil etish, portfolio tayyorlanadi va ularni taqdimoti tashkil qilinadi.

#### VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar

1. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / U.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov, 2008. - 287 b
2. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi: (Bakalavriaturaning "O'qituvchilar tayyorlash" va "Pedagogika" fani soxasi yo'nalishlari uchun uquv qo'llanma) A. Zunnunov, 2006. - 164 b
3. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar - Toshkent, "Fan", - 2001. O'quv qo'llanma.
4. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: 2003y. O'quv qo'llanma.
5. Азизхаджаев Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебное пособие. 2005
6. Farberman B.L. Ilgor pedagogik texnologiyalar / B. Farberman, 2000. – 146b



Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida qo'llaniladigan usullar Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining tamoillari. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi bosqichlari. I bosqich "Challenge" (sub'ektiv tajribani aktualashtirish). II bosqich "Tushunish". III bosqich "Refleksiya".

#### IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogik texnologiyalarning mazmuni, maqsadi predmeti va vazifalari
2. Ta'limda innovatsiya. Ta'lim tizimida masofaviy va kredit- modulli o'qitish.
3. Pedagogik texnologiyalarni turlari va klassifikatsiyasi.
4. Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish asosidagi mualliflik texnologiyalar.
5. Hamkorlikda ishlash texnologiyasi.
6. Innovatsiya jarayoni, didaktik o'yin texnologiyasi.
7. Ta'lim tizimida muammoli ta'lim texnologiyalardan foydalanish.
8. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.
9. Mualliflik ta'lim texnologiyalari.

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu fan bo'yicha **kurs ishi** tayyorlasho'quv dasturida nazarda tutilmagan

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- 1 Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari
- 2 Ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tushunchasiga berilgan ta'riflar va ularning tahlili.
- 3 Geshtalt texnologiya, Bixeyevistik texnologiyalar, rivojlantiruvchi texnologiyalar, suggestiv texnologiyalar). Ta'lim tizimida munosabatlarning shakllanishi jihatidan (avtoritar, didaktik markazlashgan, shaxsga yo'naltirilgan). Ta'lim tizimidani modernizatsiyalashning yo'nalishlari.
- 4 Ta'lim tizimidani modern yo'nalishlari.
- 5 Amonashvilining inson shaxs texnologiyasi. O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi, programallashtirilgan o'qitish, tabaqallashtirilgan o'qitish, ta'limni individuallashtirish.

#### I.O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

"Pedagogik texnologiyalar" o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining bakalavriatlar uchun Davlat ta'lim standartiga asosan tuzilgan. "Pedagogik texnologiya" fani o'quv fani sifatida kasbiy-pedagogik tayyorgarligi tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar fanini o'qitish bo'lg'usi mutaxassislarida pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha pedagogik tafakkurni tarkib toptirish, o'qituvchi-tarbiyachi, yoshlar murabbiysi vazifalarini ijodiy bajarish, umumiy tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

"Pedagogik texnologiyalar" fani pedagogik texnologiyalarning konseptual asoslari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi, xamkorlikda o'qitish texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalari, faoliyatli ta'lim texnologiyalari kabi mavzularni o'z ichiga olgan. Pedagogik texnologiyadan har bir bo'lg'usi bakalavr, qaysi fan mutaxassisi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy xajmini, o'qituvchi-murabbiyga xos umumiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarini egallashni ta'minlaydi.

#### II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning asosiy maqsadi : -Bakavrlarni pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir. Hozirgi zamon o'qituvchisi hayotimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lib, u har tomonlama yetuk, chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis, Vatani va xalqiga sodiq, pedagogik mahorat va layoqatga ega bo'lgan, jamiyatdagi hamda kasb vazifalarini yaxshi bilgan shaxs bo'lishi zarur.

"Pedagogik texnologiyalar" fanining vazifasi shundaki, oliy o'quv yurtida o'qitiladigan fanlarni to'liq egallash talaba maqsadiga aylanishi kerak. Buning uchun talaba har bir fanni to'liq o'zlashtirishi, o'z ustida doimo ishlashni bilishi lozim. Bo'lajak mutaxassis zamon bilan yashashi, kelajakni ko'rishi kerak. Jamiyatning maqsad va vazifalarni aniq bajarishida ijodiy yondashish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Fan bo'yicha talabaning malakasiga qo'yiladigan talablar pedagogik texnologiyalar sohasida; kompyuter tizimini boshqarishda; o'z kasblarini maxoratli jixatlari, o'qitish texnikasini o'rganish va mustaxkamlash sohasida; pedagogik kobiliyat va uning yunalishlari; pedagogik muomala madaniyati, pedagogik etika; mulokot turlari va mazkur jarayonni takomillashtirish uslublarini qo'llash yuzasidan **tasavvurga ega bo'lishi**;

-pedagogik texnologiyalar fanining nazariy va uslubiy asoslarini; pedagogik texnologiyalar xaqidagi jaxon tajribalarini; fanga tegishli bo'lgan asosiy terminlarning izoxini, yangiliklar, qonun - qoidalarini; ilmiy va amaliy pedagogikaning asosiy masalalarini; shaxsiy - kasbiy sifatlarni rivojlantirish va o'z ustida ishlashni



takomillashtirishni; fanga oid pedagogik kategoriyalarning mohiyatini; guruhiy testlar va ularning qo'llanilishi mohiyatini bilishi va qo'llay olishi kerak.

-talabalar mustaqil ravishda fanning mazmunidan kelib chiqqan xolda xar bir mavzuga tegishli bo'lgan zaruriy adabiyotlardan foydalanishlari, dokladlar, noan'anaviy usullarni takomillashtirilgan variantlarini ishlab chiqishda ishtirok etishlari. diagnostik metodlarni qo'llash bo'yicha; guruhlarda shaxsning xulq-atvorini xarakter xususiyatlarini diagnostika qilish bo'yicha; mulokotning, muomalaning turli vositalarini diagnostika qilish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **1-mavzu. Pedagogik texnologiyalar**

##### **Pedagogik texnologiyalarning mazmuni, maqsadi predmeti va vazifalari**

Pedagogik texnologiyalarni vujudga kelishi va shakllanishi. Pedagogik texnologiyalarni kelib chiqish zarurati (ITT, integratsiya, kadrlarni kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablar, ta'lim tizimini takomillashtirish). Pedagogik texnologiyalar fanining o'rganish predmeti va ob'ekti. Pedagogik texnologiyalarning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari (kafolatlangan samarali natija, aniq, ilmiy loyihalashtirilgan jarayon, takrorlanish). Oliy ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tushunchasiga berilgan ta'riflar va ularning tahlili.

#### **2-mavzu. Ta'limda innovatsiya. Ta'lim tizimida masofaviy va kredit- modulli o'qitish.**

Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi. Innovatsion jarayonlarning bosqichlari. O'quvchining innovatsion faoliyat tuzilmasi, diagnostika, qoliplashtirish, o'qituvchning innovatsion faoliyati, aksiologiya, akmiologiya, kreativli, refleksiya, innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning "hayoti va faoliyati" uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari, yangilik kiritishning psixologik aspekti.

#### **3-mavzu. Pedagogik texnologiyalarning turlari va klassifikatsiyasi**

Pedagogik texnologiyalarni turlari (umumiy, xususiy metodik, universal modulli kichik texnologiyalar). Pedagogik texnologiyalarni falsafiy jihatdan guruhlash (materialistik, idealistik, diniy, ilmiy). Ta'limni tashkil etishga yondoshuv jihatdan (biogen, psixogen, sotsiogen). Pedagogik texnologiyalarni shaxsni psixik xususiyatlarini rivojlantirish jihatidan guruhlash (axborot texnologiyalari, operasion texnologiyalar, evristik texnologiyalar, estetik-axloqiy texnologiyalar, boshqaruvchilik xususiyatini rivojlantiruvchi texnologiyalar, amaliy texnologiyalar). O'zlashtirish jarayoniga yondashuv jihatidan texnologiyalarni guruhlash (assotsiatsiya-refleks,

Geshtalt texnologiya, Bixeveristik texnologiyalar, rivojlantiruvchi texnologiyalar, suggestiv texnologiyalar). Ta'lim tizimida munosabatlarning shakllanishi jihatidan (avtoritar, didaktik markazlashgan, shaxsga yo'naltirilgan). Ta'lim tizimidani modernizatsiyalashning yo'nalishlari.

#### **4-mavzu. Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish asosidagi mualliflik texnologiyalar**

Amonashvilining inson shaxs texnologiyasi. O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi, programallashtirilgan o'qitish, tabaqallashtirilgan o'qitish, ta'limni individuallashtirish.

#### **5-mavzu. Hamkorlikda ishlash texnologiyasi**

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari. Ushbu texnologiyaga asos solgan olimlarning tajribalari. Hamkorlikda o'qitishning turlari. Jamoada o'qitish texnologiyasining strukturasi. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Zig zag yoki arra texnologiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etish. Kop-koop, 6X6 texnologiyalarining tuzilishi, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini qo'llash shart-sharoitlari. Barkamol shaxsni shakllantirish jarayonida interfaol texnologiyalarning o'rni.

#### **6-mavzu. Innovatsiya jarayoni, didaktik o'yin texnologiyasi**

Innovatsiya, innovasion jarayon haqida tushuncha. Didaktik o'yinlarni tashkil etish tamoyillari (immitatsiya, muammoli vaziyatlar, ikki planlilik, ishlab chiqarish dinamikasini hisobga olish, jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish, kasbiy yo'nalishni hisobga olish). Didaktik o'yinlarni turlari (psixotexnik, rolli). Didaktik o'yinlarni vazifalari (egallangan bilimlarni mustaxkamlash, yangi bilimlarni egallash, kasbiy tayyorgarlik). Rolli va ishbilarmon o'yinlar. Ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish yo'llari. Barkamol avlodni shakllantirish va malakali mutaxassislarni yetishtirish jarayonida didaktik o'yin texnologiyalarining o'rni.

#### **7-mavzu. Ta'lim tizimida muammoli ta'lim texnologiyalardan foydalanish**

Muammoli ta'limni o'rganish nazariyasining rivojlanish tarixi. Muammoli ta'limning maqsad va vazifalari. Muammoli ta'lim usullarini tasniflash. Muammoli ta'limni tashkil etish shakllari. Muammoni o'rganishning texnologik sxemasi. Muammoli vaziyatlarni yaratishda uslubiy uslublar.

#### **8-mavzu. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari**